

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

1-2024

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

B.Sh.Shermuhammadov	
Ilmsizlarni tarix haqiqatlari fosh etadi.....	8
<hr/>	
PEDAGOGIKA	
B.Sh.Shermuhammadov, O.R.Raxmatov	
Mediasavodxonlik vositasida bo'lajak texnologik ta'lim o'qituvchilarining informatsion madaniyatini rivojlantirish mazmuni.....	10
Ким Владимир	
Эффективность внедрения акцентированной методики по развитию физического статуса юных баскетболистов	15
A.H.Amonov	
Научное обоснование актуальности проблемы развития скорости перемещения и точности ударов в настольном теннисе с самого раннего возраста.	20
N.O.Saidova, D.M.Axmadjonova	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlari tayyorlov guruhlarida bolalarning matematik tasavvurlarini rivojlantirishning hozirgi holati.....	25
O.Q.Xasanova	
Bo'lajak nemis tili o'qituvchilarida xatolarni tahlil qilish ko'nikmasini shakllantirishning ahamiyati	28
M.E.Abdullayev	
O'quvchilarda milliy g'urur tuyg'usini rivojlantirishda etnopedagogik qadriyatlarning tarbiyaviy imkoniyatlari.....	34
B.Sh.Turg'unboyev	
Bo'lajak o'qituvchilarning media kompetentsiyasini shakllantirishga nazariy va uslubiy yondashuvlar	37
X.A.Kadirova	
Tibbiyot oliygochlarda tibbiy biologiya va umumiy genetika fanlarini o'qitishda foydalaniladigan interfaol ta'lim metodlari.....	43
S.T.Xakimov, S.Q.Xudoyqulov	
Maktab o'quvchilarining kun davomidagi harakat faolligining me'yori	49
D.K.Karimov	
Jismoniy madaniyat yo'nalishi talabalarida egiluvchanlikni rivojlantirish usullari samaraliligini o'rganish.....	53
K.F.Nazarova	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida nutqiylarini rivojlantirish jarayonini loyihalashning pedagogik-psixologiya xususiyatlari.....	57
J.Dj.Sultanov	
Harbiy-siyosiy sohada axborot tahdidlarining oldini olish masalalari.....	61
X.X.Xasanbayev	
Mudofaa tizimida harbiy pedagog kadrlarni tayyorlash va ularni malakasini oshirish mexanizmi.....	64
O'R.Maxmudov	
O'zbekiston harbiy ta'lim muassasalari harbiy pedagoglarining professional harbiy pedagog bo'lib shakllanishidagi muammolar va ularning yechimi.....	68
I.Y.Masharipov	
Bo'lajak harbiy pedagoglarni harbiy-kasbiy kompetentligini shakllantirishning pedagogik omili	71
F.O.Qo'ysinova	
Mafkuraviy va ma'naviy tahdidlar bilan bog'liq jarayonlarda radikalizm muammosi	75
R.X.Ibragimov	
Kasb-hunar maktablarida fizika fanini o'rganishda o'quvchilar o'rtasida eksperimental ko'nikmalarni shakllantirish	78
A.Tuychiyev	
Ta'lim tizimida xorijiy tajribadan foydalanish va ta'lim texnologiyalarining o'ziga xos jihatlari.....	82

**BO'LAJAK NEMIS TILI O'QITUVCHILARIDA XATOLARNI TAHLIL QILISH
KO'NIKMASINI SHAKLLANTIRISHNING AHAMIYATI**

**ВАЖНОСТЬ ФОРМИРОВАНИЯ НАВЫКОВ АНАЛИЗА ОШИБОК У БУДУЩИХ
УЧИТЕЛЕЙ НЕМЕЦКОГО ЯЗЫКА**

**THE IMPORTANCE OF DEVELOPING ERROR ANALYSIS SKILLS FOR FUTURE
GERMAN LANGUAGE TEACHERS**

Xasanova Ozodaxon Qurvonali qizi¹

¹Farg'ona davlat universiteti doktoranti, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, (PhD)

Annotatsiya

Maqolada bo'lajak nemis tili o'qituvchilarining xatolarni tahlil qilish ko'nikmasini shakllantirishning ahamiyati tadqiqqa tortilgan. Til o'rganuvchilar yo'l qo'yan xatolarni tahlil qilish ko'nikmasi bo'lajak nemis tili o'qituvchilarining xatolarni bartaraf etish kompetensiyasini takomillashtirishning ajralmas qismi sifatida tahlil etilgan. Xatolarni tahlil qilishning ayrim usullariga ta'rif berilgan.

Аннотация

В статье исследуется важность формирования навыков анализа ошибок у будущих учителей немецкого языка. Умение анализировать ошибки, допущенные изучающими язык, анализируется как неотъемлемая часть совершенствования корректирующей компетентности будущих учителей немецкого языка. Описаны некоторые методы анализа ошибок.

Abstract

The importance of forming error analysis skills of future German language teachers is investigated in the article. The ability to analyze errors made by language learners is analyzed as an integral part of improving the error-correcting competence of future German language teachers. Some methods of error analysis are described.

Kalit so'zlar: nemis tili, xato, tahlil, o'qituvchi, to'g'rakash, til o'rganuvchi, tavsif, metod, kompetensiya.

Ключевые слова: немецкий язык, ошибка, анализ, учитель, коррекция, изучающий язык, описание, метод, компетентность.

Key words: German language, error, analysis, teacher, correction, language learner, description, method, competence.

KIRISH

Til o'rganuvchilar tomonidan yo'l qo'yiladigan xatolar bilan ishlash chet tili o'qituvchilar faoliyatining ajralmas bir qismidir. Chet tili o'qituvchilarining xatolarga bo'lgan munosabatlari esa xilma-xilligi ko'zga tashlanadi. Lekin xatolar til o'rganish jarayonida asta-sekin kamaya boradigan, aslida esa til o'rganuvchilarining ilgarilayotganini ko'rsatuvchi ijobiy holat hisoblanadi. Xatolarning kelib chiqish sabablarini o'rganish asosida til o'rganuvchilar yo'l qo'yadigan xatolarni oldini olish, mavjudlarini kamaytirib chet tili darsining maqsadlaridan biri bo'lishi maqsadga muvofiq. O'zbek tilli til o'rganuvchilarining nemis tilini o'rganishda yo'l qo'yadigan xatolari tahlil qilish va bo'lajak nemis tili o'qituvchilarining xatolarni tahlil qilish ko'nikmasini shakllantirish dolzarb ahamiyatga ega.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA TADQIQOT METODOLOGIYASI

Bo'lajak nemis tili o'qituvchilarining til o'rgatish jarayonidagi xatolarni bartaraf etish kompetensiyasini takomillashtirish uchun ularda xatolarni tahlil qilish ko'nikmasini ham shakllantirish lozim. H.Raabening fikriga ko'ra, xatolar tahlilining asosiy maqsadi xatolarni oqilona, adekvat, qamrovli, multiditsiplinar tasvirlash va tushuntirish hisoblanadi [2.64]. Xato darsning bir qismi sifatida qaralishi hamda chet tili darslarini yaxshilash uchun yo'naltirilishi kerak. Avval xatolarni tahlil qilish tarixiga to'xtalib o'tsak.

Xatolarni tahlil qilish Yevropada fan sifatida shakllanganiga ko'p vaqt bo'lmadi. Shu sababli uni yosh fanlar qatoriga kiritish mumkin. Xatolarni tahlil qilish haqidagi dastlabki qarashlar 1960-yil oxirlarida paydo bo'lgan. Avvallari xatoga chet tili o'qitishdagi gunoh sifatida qaralgan. Lekin bu qarash birinchi tilni o'rganish bilan bog'liq emas. Birinchi tilni o'rganishda xatolarga tilni qo'llashning tabiiy, mantiqiy tarkibiy qismi sifatida yondashilgan. Xatolarga gunoh kabi yondashish asosan bexaviorizm o'rganish nazariyasi bilan chambarchas bog'liq. Bexaviorizmda xatoning yagona sababi sifatida ona tilidan transfer ko'rsatiladi. Darslarda grammatik tarjima metodidan foydalilanilgan. Xatoni ko'rsatuvchi indikator sifatida esa qobiliyatning yetishmasligi ko'rsatilgan.

PEDAGOGIKA

Bexaviorizmda ham xatolarni kamaytirishga e'tibor qaratilgan. 1970-yillardan boshlab xatolarga biroz bag'rikeng munosabatda bo'lish ko'zga tashlana boshladi. Shu davrdan boshlab xatolarga chet til o'rganish jarayonidan zaruriy oraliq bosqich sifatida qarala boshlangan.

Shu o'rinda H.Raabening quyidagi fikrini keltirib o'tish o'rinni: "...u ko'p hollarda foydali, kreativlikni ifodalovchi, til tizimlari o'rtasidagi kam hollarda bir xil bo'lувчи yoki uzoq muddatli o'rganish jarayonining zaruriy tarkibiy qismi" [2.65].

70-yillarda xatolarni analiz qilishdan asosiy maqsad xato turlarini klassifikatsiya qilish, ularni tilda uchrash tezligini ta'riflash, baholash va to'g'rilash uchun ko'rsatmalar berish, imkon qadar xatolarni kamaytirishga harakat qilish bo'lgan. Bu xususiyatlar asosan audiolingual metod uchun xos bo'lgan. Bu paytda xatolarning kelib chiqish sabablarini aniqlash, tushuntirish muhim ahamiyat kasb etgan. Ayniqsa, tillararo xatolarga katta qiziqish bilan qaralgan. Keyinchalik tillararo xatolarni kelib chiqish sabablariga kognitiv jihatdan yondashish boshlangan. Undan so'ng esa xatolar o'rganilayotgan tilning o'zi sababli kelib chiqishi haqidagi fikrlar ham paydo bo'la boshlagan.

Ma'lum vaqt o'tgandan keyin esa xatolarni analiz qilishga tillararo analizning bir qismi sifatida qarala boshlandi. Unga ko'ra ona tili va o'rganilayotgan tillar o'rtasida uchraydigan xatolar taqqoslangan. Xatolarga tillararo analizning bir qismi, oraliq tilga aloqador holda kreativ til o'rganish jarayonining indikatori shaklida yondashila boshlandi. Uning yordamida oraliq til shakllanadi deb ta'kidlaydi, M.Bonnensteffen ham [5.14]. Bunday yangicha yondashuvdan keyin xatoga gunoh sifatida emas, balki til o'rganish jarayonining zaruriy elementi va o'rganishdagi ilgarilashni belgilovchi vosita deb baho berilishi boshlandi.

Xato tushunchasi belgilangan til me'yorlarini buzish, me'yordan og'ishish deb ta'riflanadi. Bu me'yorlarning buzilishi xatolarni analiz qilishning markaziy yondashuvi hisoblanadi. Ammo bundan tashqari xatolarni kamaytirishga bo'lgan munosabat, ma'lum ma'lumotlarni kam taqdim etish, ma'lum ma'lumotlarni ko'p taqdim etish, soddallashtirishlardan ko'p foydalanish va qisqartirishlar ham xatolarni analiz qilish uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Tavsifga yo'naltirilgan tadqiqotlar

Tavsifga yo'naltirilgan tadqiqotlar kashf qiluvchi-interpretatsion metod bo'lib, quyidagi tadqiqot aspektlarida ish olib boradi:

- to'g'rilash jarayonining murakkab strukturasini, uning majburiy va fakultativ elementlarini yaratish;

- xatolaringa yondashish tiplarini klassifikatsiya qilish;
- xatolarni to'g'rilash jarayonida o'qituvchi va til o'rganuvchining harakati turlarini tavsiflash;
- o'qituvchilarga xos to'g'rilash stillarini identifikatsiyalash;
- o'qituvchilarning subyektiv dars nazariyalaridan tegishli to'g'rilashga urinish munosabatini shakllantirish;

- til o'rganuvchilarning ular qanday, qanaqa va kim tomonidan xatolari to'g'rilanishini xohlashlari haqida munosabatlarini shakllantirish.

Ta'rifga yo'naltirilgan tadqiqotlardan darslarda ko'pincha kuzatish jarayonida ma'lumot yig'ish instrumenti sifatida ham qo'llaniladi. Chunki tadqiqotchi xotirasida hamma ma'lumotlarni saqlab qololmaydi. Shu sababli dars jarayoni videoga olinadi yoki ovozi yozib olinadi. Darsdan so'ng uni qayta ko'rib yoki eshitib transkriptsiya va tahlil qilinadi. Ko'pincha o'qituvchilardan intervyu olish usulidan ham foydalaniladi. Til o'rganuvchilar o'rtasida turli so'rovnomalar o'tkaziladi. Ular yordamida dars tahlili to'ldiriladi. Natijada o'qituvchi va til o'rganuvchilar o'rtasidagi munosabatlarni aniqlab olish imkonи paydo bo'ladi.

Xatolarni to'g'rilash usullarini klassifikatsiya qilishning bir necha usullari mavjud. V.Tonshoff xatolarni til o'rganuvchining o'zi va boshqa shaxs tomonidan to'g'rilanishi turlariga ajratadi. Shu o'rinda bevosita va bilvosita to'g'rilash, xalaqit beruvchi, xalaqit bermaydigan usuldagi to'g'rilash, obyektga yo'naltirilgan va metalingvistik to'g'rilash turlari ham keltirib o'tiladi [7.4-5.].

Lekin V.Tonshoff klassifikatsiyalarni taqqoslash muammoli ekanligi, chunki tahlil birligi, to'g'rilash sekvenzi turli xil va ko'p komponentlarni o'z ichiga qamrab olishini ham ta'kidlaydi.

Bu kategoriyalashning asosida turli mezonlar yotadi. Til o'rganuvchilarning hissalari har doim ham hisobga olinmaydi. Biroq, xatolarni klassifikatsiya qilishning umumiy tomoni shundaki, o'qituvchi tomonidan amalga oshirilgan to'g'rilashlar va til o'rganuvchilarning maslahatlari bilan boshlangan to'g'rilashlar ham xatolarni to'g'rilashga birdek yordam beradi.

Til o'rganuvchilar o'z xatolarini tuzatish imkoniga ega bo'lmasa, albatta to'g'rilash o'qituvchi tomonidan amalga oshiriladi. Har bir o'qituvchi o'zining xatolarini to'g'rilash usuliga ega. Bu usullar ko'p hollarda dars bosqichi va xato turiga ham bog'liq bo'ladi. V.Tonshoffning tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, o'qituvchi xatoga nisbatan ijobjiy munosabatda bo'lishi kerak. Xatoni to'g'rilashga bo'lgan extiyoj o'qituvchiga o'zini kerakli inson sifatida his qilish imkonini beradi [7.6].

O'qituvchining xatolarni to'g'rilashdagi zaruriy o'rni ba'zi hollarda til o'rganuvchilar tomonidan yoqimsiz holat sifatida ham qabul qilinadi.

Albatta, to'g'rilash o'rganish jarayoni uchun zarur, ammo uni ba'zi til o'rganuvchilar yoqimsiz, adashtiruvchi, ba'zilari esa xatolarini fosh qiluvchi va boshqa til o'rganuvchilar oldida uyaltiruvchi vosita sifatida qabul qilishadi.

Hamma til o'rganuvchilar ham guruhdoshlari oldida chet tilidagi kuchsiz tomonlari e'lon qilinishini, bu haqida hamma xabardor bo'lishini xohlashmaydi. Bu holatda ayniqsa o'zini kuchsiz deb hisoblovchi til o'rganuvchilar yanada sustlashib ketadilar. O'zini hamma narsani a'lo darajada bajaradigan, deb hisoblaydigan til o'rganuvchilarga ham bu holat yoqmaydi. Bunday til o'rganuvchilar qatoriga sho'x tabiatga ega bo'lganlarni ham kiritish mumkin. Ularda ham to'g'rilashni qabul qilish qiyin kechadi. Shu sababli o'qituvchidan har bir til o'rganuvchiga individual yondashuv talab etiladi. Bundan tashqari o'qituvchi o'z faninini boshlashidan oldin, aytaylik birinchi darsda hamma ham chet til o'rganish jarayonida xatoga yo'l qo'yishi, til o'rganish jarayoni xatolarsiz kechmasligi hamda xato o'rganish jarayonining ajralmas qismi ekanligi, xato qilishdan uyalmaslik kerakligi haqida til o'rganuvchilar bilan suhbatlashib olishi maqsadga muvofiq. Shunda muammoni hal qilish osonroq kechadi, xatolar bilan ishlash tabiiy jarayondek qabul qilinadi.

V.Tonhoff, K.Kleppin va M.Koenigslar [7], [3] tomonidan til o'rganuvchilar nutqidagi og'zaki xatolarni to'g'rilashga bo'lgan munosabatlarini o'rganish uchun tadqiqotlar ham olib borilgan. Guruhdagi ma'lum til o'rganuvchi javob bergenida, uning xatosini to'g'rilanishi, ayni paytda javob bermoqchi bo'lgan boshqa til o'rganuvchilarni sergaklikka chorlashi va xatoga yo'l qo'ymaslikka undashi kuzatiladi. Lekin shuni ta'kidlash kerakki, ba'zi til o'rganuvchilarga o'z sheriklari tomonidan xatolarini to'g'rilanishi yoqsa, ba'zilari to'g'rilash faqat o'qituvchi tomonidan amalga oshirilishini istashadi. Albatta, deyarli barcha til o'rganuvchilar javob berish vaqtida ularni hech kim to'xtatmasligini, to'g'rilash bilvosita amalga oshirilishini xoxlaydilar. Bunday ta'rifga yo'naltirilgan tadqiqotlar tipi xatolar tahlilini kengaytiradi va to'g'rilash jarayonining naqadar murakkabligini chuqur anglashga yordam beradi.

Bunday tadqiqot natijalari bo'lajak chet til o'qituvchilari uchun, bundan tashqari chet til o'qituvchilarining malakalarini oshirish, qayta tayyorlash kurslarida o'qitilishi ham maqsadga muvofiq. Chunki o'qituvchilarning katta qismi xatolarni to'g'rilash muammolari va ularning yechimlari bilan tanish emasliklari ko'zga tashlanadi. Fikrimizcha, o'qituvchilarga til o'rganuvchilarni o'z xatolarini o'zları to'g'rilashlari uchun tashabbus ko'rsatishning turli shakllarini o'rgatish hamda ularni xatolarga tizimli yondashishga tayyorlash zarur.

Shu sababli ham xatolarni to'g'rilash mavzusi nafaqat yangi bitirgan chet til o'qituvchilar, balki tajribali chet til o'qituvchilari uchun ham muhim ahamiyat kasb etadi. O'rganish strategiyalarini va til o'rganuvchilarning kompetensiyalarini, tilni ongli ravishda o'rganishga bo'lgan ishtiyoqlarini oshirishda ham xatolarni to'g'rilash mavzusi muhimdir.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Xatolarni to'g'rilashning o'rganish jarayoniga ta'sirini aniqlash yuzasidan olib borilgan tadqiqotlar ham xatolar tahlilida katta ahamiyat kasb etadi. Bu tadqiqotlar turli to'g'rilash shakllarining aniq samaradorlik darajasi qanday ekanligini aniqlashga, to'g'rilashning o'rganish jarayoniga ta'siriga oid savollarga yechim topishga xizmat qiladi. Bu tadqiqotlar natijasida chet tillarni o'rganish bilan bog'liq gipotezalar shakllantiriladi. Quyida ushbu gipotezalarga to'xtalib o'tamiz.

Qabul qilish - qaytarish gipotezasi

Xatolarni tahlil qilish uchun o'rganish jarayoni qanday kechayotganiga e'tibor qaratish lozim. Bunda qabul qilish va qaytarish (Input-output) gipotezasi yordam beradi. Input deganda, til o'rganuvchining o'qituvchisidan yoki atrofidagilardan til haqidagi yangi ma'lumotlarni qabul qilishi tushuniladi. K.Loxtmanning ta'kidlashicha, o'qituvchining outputi til o'rganuvchiga input bo'lib xizmat qiladi [4.17]. Bu ma'noda input til o'rganuvchining chet tilidan foydalana olishini bildiradi. Bunday input hamisha lisoniy ma'lumotlarni o'z ichiga oladi, bu ma'lumotlarning bir qismi bilan til

PEDAGOGIKA

o'rganuvchi oldindan tanish bo'lsa, bir qismi yangi ma'lumotlardan iborat bo'ladi. Til o'rganuvchilar eski ma'lumotlar ichidan yangisini ajratib olishi lozim.

K.Loxtman yuqorida fikrlari bilan birga, til o'rganuvchilar o'qituvchi tomonidan taqdim etilgan ma'lumotlardan o'ziga kerakligini o'zları filtrlab olishi lozimligini ham qo'shimcha qiladi. Uning fikriga ko'ra, input va intake tushunchasi farqlanadi [4.18]. Bu o'rinda input nima muhimligi bo'lsa, intake esa aslida nimaning qabul qilinganligidir. G.Henriki esa, mazmunga aloqador va shakliga aloqador darsni farqlanishi haqida yozadi [1.215-237]. Fikrimizcha, u bunday qarashi bilan input nafaqat mazmunan yangi ma'lumotlarni, balki yangi grammatick ma'lumotlarni ham qamrab olishi mumkinligiga ishora qiladi. Input vaqtida yangi ma'lumotlar faqat retseptiv tarzda qabul qilinadi. Input gipotezasiga ko'ra input o'rganishga undovchi va tushunarli bo'lishi kerak. Aytilgan va tushunilgan ma'lumotlar o'tasida esa ma'lum aloqalar mavjud bo'ladi.

Qaytarish (output) esa til o'rganuvchining chet tilida nima o'rgangan bo'lsa, shu narsalarni qayta ifodalab berishi hisoblanadi. Output gipotezasi input gipotezasiga qaraganda til o'rganishga boshqa nazar bilan qarashni talab qiladi. G.Henrikining ta'kidlashicha, tildan foydalanish til o'rganuvchini lisoniy ifoda vositalariga e'tibor berishga majbur qiladi. Asosiy bosim mazmun va lisoniy me'yorga mos outputga yo'naltiriladi [1.220]. Til o'rganuvchi chegaralangan, shu bilan bir qatorda ishonchi komil bo'lmagan lisoniy vositalar bilan o'zining kommunikativ maqsadiga erishishga harakat qilishi lozim. Bizning fikrimizcha mazmun asosiy planda turishini va output til o'rganuvchining til shakliga diqqat qilishiga imkon berishini ta'kidlamoqchimiz.

Qayd qilish gipotezasi

Qayd qilish gipotezasi output hamda input gipotezasini o'zida mujassamlashtiradi. Unga ko'ra, o'rganish jarayoni e'tibor va ongliliksz imkonsizdir. Inputda til o'rganuvchi nimani eshitsa va unga diqqatini qaratsa, shu narsani o'zlashtiradi. E'tiborsiz tilni o'rganishni imkon bo'lmaydi. Tildan kommunikativ foydalanish chet tilni nafaqat yaxshi va qoniqarli egallash uchun, balki input uchun ham zarurdir.

Qayd qilishga xatoni to'g'rilashning ikki aspekti tegishli hisoblanadi.

- til o'rganuvchilarning xatolari to'g'rilanishi yoki xatolarini o'zları to'g'rilashga undalishlaridan xabardor bo'lishlari;
- til o'rganuvchining bir tomondan o'zining shaxsiy nutqini ishlab chiqarishi va boshqa tomongan avval orttirilgan bilimlaridagi input elementlari farqlanishidan xabardor bo'lishlari.

Input gipotezasi xatolarni bevosita o'qituvchi tomonidan to'g'rilanishini tasvirlashga harakat qiladi. V.Tonshoffning fikriga ko'ra, o'qituvchining bevosita xatolarni to'g'rilashi katta ehtimol bilan xatolarni to'g'rilashning boshqa shakllaridan xabardor bo'lishga olib keladi [7.9.]. Lekin albatta har doim ham emas. Til o'rganuvchiga to'g'rilangan variantni aytish yordamida uning faqat shu to'g'ri javobni eslab qolishini kutish o'rinsiz. Ko'p hollarda til o'rganuvchi yo'l qo'ygan xato va uning to'g'ri varianti ketma-ketlikda yodda saqlanadi. Til o'rganuvchi qayta ushbu qoida yoki so'zga murojaat qilganida dastlab o'zining javobi va undan keyin o'qituvchi tomonidan to'g'rilangan variant yodiga tushadi.

Output gipotezasida esa til o'rganuvchi o'z xatosini o'zi to'g'rilashiga undashning ta'sirli ekanligi, chunki bu vaziyatda til o'rganuvchining diqqati muammo yuzaga kelgan sohaga yo'naltirilishi va nutqidagi muammoni ongli ravishda tushunib olishiga urg'u beriladi. Til o'rganuvchi o'z xatosini o'zi to'g'rilaydi va bu jarayonda avval orttirilgan bilimlaridan yordamchi vosita sifatida foydalanadi. Ammo bizning fikrimizcha, har ikkila gipoteza o'zaro kombinatsiya hosil qilganida samaradorlik yanada yuqori bo'ladi. O'z xatosini to'g'rilashga undash ba'zida foydali bo'lsa, ba'zi hollarda xatolarni o'qituvchi tomonidan to'g'rilangani maqsadga muvofiq. O'qituvchi va til o'rganuvchi o'tasidagi ikki tomonlama hamkorlik qanchalik kuchli bo'lsa, til o'rganish jarayoni shunchalik tez va samarador bo'ladi.

Xatolarni to'g'rilash qachon ta'sirli bo'lishi haqida fikrlarga to'xtalib o'tish ham muhim. Ma'lum xatoga yo'l qo'yilganida muntazam bartaraf etish to'g'rilash jarayonining samarali va ta'sirli bo'lishini ta'minlaydi. Lekin bu vaqt darsning aynan qaysi qismiga to'g'ri kelishini aniq aytish qiyin. Shunday bo'lsada, xatolarni to'g'rilashning ta'sirchan bo'lishi uchun ba'zi mezonlar mavjud:

Birinchidan o'qituvchi xatoni shunday to'g'rilash eng to'g'ri yo'l ekanligiga ishonchi komil bo'lishi kerak;

Ikkinchidan to'g'rilangan struktura til o'rganuvchi tomonidan takrorlanishi va o'z xatosini o'zi to'g'rilashga undalishi lozim. K.Loxtman tomonidan bu jarayon Uptake deb nomланади [4. 5.].

Uchinchidan, agar til o'rganuvchi keyingi darslarda yoki testda to'g'ri javob bera olsa, xatoni to'g'rilash samarali amalga oshirilganiga ishonch hosil qilish mumkin.

Lekin til o'rganuvchi haqiqatdan ham o'qituvchining to'g'rilashini o'qituvchi o'ylaganidek qabul qilganini aniqlash qiyin. Chunki bu o'rganishning psixologik aspekti bilan bog'liq bo'lib, uni kuzatish va o'lhash biroz murakkab jarayon hisoblanadi. Til o'rganuvchi o'z xatosi haqida eslaganida, u xato bilan faol ishlashi va uni uzoq muddatli xotiraga joylashga harakat qilishi lozim. V.Tonhoff o'z so'rovlardida til o'rganuvchilarning ko'p qismi xatolarini to'g'rilanganiga deyarli ahamiyat berishmaganini aniqlagan [7].

K.Loxtmanning fikricha, o'qituvchilar ba'zida til o'rganuvchini xatosini to'g'rilash uchun shunday o'zgartirishlar qilishadiki, til o'rganuvchilar bunga e'tibor ham bermaydilar [4.12]. Bunday o'zgartirishlar o'qituvchining xatoni bevosita to'g'rilashi hisoblanadi. Bunda til o'rganuvchi xatoga yo'l qo'yadi, o'qituvchi esa uni qayta shaklga soladi va to'g'rileydi. Til o'rganuvchi o'zgartirishni umuman tushunmasligi, qanday xato qilganligini bilmasligi, xatto xatoga yo'l qo'yanligidan ham bexabar bo'lishi mumkin.

Xatolarni to'g'rilashda til o'rganuvchi qaysi to'g'rilash usuliga qanday reaksiya bildirishi ham ko'p tadqiqotchilarni qiziqtiradi. V.Tonhoffning tadqiqotlarida to'g'rilash shakllarining o'zaro taqqoslash qiyinligi qayd etiladi. Eng muvaffaqiyatsiz to'g'rilash usuli sifatida xatolarning bevosita o'qituvchi tomonidan to'g'rilanishi ko'rsatiladi [7]. O'qituvchi xatoni bevosita to'g'rilaganiga uchun, til o'rganuvchi o'qituvchi nimani to'g'rilaganini payqamay ham qoladi. To'g'rilashga esa urg'u berilmaydi.

So'z boyligidagi xatolarga grammatik xatolardan ko'ra ko'p e'tibor beriladi. Grammatik xatolar ko'pincha bevosita to'g'rilansa, so'z boyligidagi xatolar ko'proq til o'rganuvchilarning o'zi tomonidan to'g'rilanishiga undaladi. Ko'p o'qituvchilar til o'rganuvchilar grammatik xatolarni o'zları to'g'rilash qobiliyatiga ega emas deb o'laydilar va grammatik xatolarni o'zları to'g'rileydilar. Lekin til o'rganuvchilarga grammatik xatolarini o'zları to'g'rilashlariga imkon berish yordamida, ular bunga qodirmi yoki yo'qmi bilib olish mumkin. Aslida so'z boyligida yo'l qo'yilgan xatoni to'g'rilash qiyin bo'lib, bu holat asosan og'zaki nutqda ko'zga tashlanadi.

Til o'rganuvchiga to'g'rilash uchun yo'llanma berilganidan so'ng u o'z xatosini qaytadan tuza olishi yoki o'qituvchi to'g'ri javobni aytganidan keyin uni takrorlay olishi lozim. Bunda birinchi usul samaradorligi yuqori, ikkinchi usul esa unchalik ham samarador emas. Chunki bu usulda til o'rganuvchi o'zi tushunmagan holda o'qituvchi nima degan bo'lsa, shuni takrorlaydi. Ko'p hollarda esa o'qituvchilar o'zining xatoni to'g'rilashi bilan cheklanadi, til o'rganuvchilarda to'g'ri javobni takrorlab olishga ham ulgurmaydi. Lekin to'g'rilash samara berishi uchun har bor til o'rganuvchiga to'g'ri shaklni takrorlashga imkon berish talab etiladi. Shundagina til o'rganuvchi to'g'ri shaklni yodda saqlashi mumkin bo'ladi.

Shunday tadqiqotlar ham borki, ular uzoq muddatli muvaffaqiyat va lingistik kompetensiyaning davomli rivojlanishi bayon qilishni nazarda tutadi. Bu bosqichda xatoni to'g'rilash haqiqatdan ham til o'rganuvchiga yo'naltirilganmi, guruhdagi boshqa til o'rganuvchilarga ham ta'sirga egami, ular nima to'g'rilanayotgani tushunishdimi kabi savollarga aniqlik kiritishga harakat qilinadi. V.Edmonson xatoni to'g'rilashning bevosita va bilvosita adresatlari mavjudligini ta'kidlaydi [6.57]. U tomonidan "kuzatuvchi-gipoteza" tushunchasi ham qo'llaniladi. Bu tushuncha qolganlarning xatosi to'g'rilanganini eshitish jarayonida yaxshiroq o'rganadigan til o'rganuvchilarni bildiradi. Xatolarni to'g'rilashning ta'sirchanligini aniqlash uchun tadqiqotlarni nafaqat laboratoriyyada, balki o'qituvchi va til o'rganuvchi ishtirok etgan haqiqiy darsda ham o'tkazish mumkin. Tadqiqotning birinchi tipida jarayonning kechishi to'liq nazorat ostida bo'ladi. V.Tonhoffning fikricha, xatolarni og'zaki to'g'rilashning ta'sirini aniqlashda bunday tadqiqotlarning ahamiyati katta [7.14].

Biz olib borilgan tadqiqotlarda xatolarni to'g'rilashning ta'siri haqida berilgan fikrlarga qo'shilamiz, lekin bu tadqiqotlar asosan kichik guruhlarda olib borilgan. Bundan tashqari tadqiqotning davomiyligi ham uzoq bo'lmagan. Xatolarni to'g'rilashning haqiqiy ta'sirini aniqlash uchun, tadqiqotni nafaqat kichik guruhlarda, balki katta guruhlarda ham o'tkazish maqsadga muvofiq. Tadqiqotning qancha muddat davom etishi ham bunga ta'sir etmay qolmaydi. Tadqiqot davri qanchalik uzoq bo'lsa, aniqlangan natijalar yanada ishonarli bo'ladi.

Laboratoriyyada o'tkazilgan tadqiqotlar natijalari ham, haqiqiy dars jarayonida erishilgan natijalarga qaraganda nisbiyроq hisoblanadi. Ko'p hollarda darslarda olib borilgan xatolarni to'g'rilashning haqiqatda qanday kechganligi, to'g'rilash turiga e'tibor qaratilmasligi. Bunday

PEDAGOGIKA

tashqari til o'rganuvchilar grammatik qoidani haqiqatdan ham o'zlashtirganmi yoki yod olingen struktura yordamida gapni takrorlay olish ko'nikmasiga ega xolosmi degan savolga ham aniqlik kiritish lozim.

XULOSA

Xulosa sifatida shuni ta'kidlash lozimki, xatolarni tahlil qilish yuzasidan turli tadqiqotlar olib borilgan bo'lsa-da, ularning natijalari asosida keltirilgan dalillar til o'rganuvchilar guruhi, yoshi, til o'rganilayotgan mamlakat, guruhdagi til o'rganuvchilarning soni, til o'rganuvchilarning shu tilni o'rganishdan maqsadi kabilarning o'zgarishi bilan o'zgarib boradi. Shu sababli o'zbek ta'lif muassasalarida ta'lif olayotgan bo'lajak nemis tili o'qituvchilari bilan bu borada tajriba-sinov ishlarini olib borish maqsadga muvofiq.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. G.Henrici. Fremdsprachenerwerb durch Interaktion? Zur Diskussion und Überprüfung einer Hypothese aus der Forschung zum gesteuerten Zweitsprachenerwerb. In: Henrici et al. (Hrsg.), Fremdsprachen Lehren und Lernen. Themenschwerpunkt: Fehleranalyse und Fehlerkorrektur. 1993. S.215-237.
2. H.Raabe. Der Fehler beim Fremdsprachenerwerb und Fremdsprachengebrauch In: Dieter Cherubim (Hg.): Fehlerlinguistik. Beiträge zum Problem der sprachlichen Abweichung. Tübingen, 1980. S.65.
3. K.Kleppin, F.Königs. „Grundelemente der mündlichen Fehlerkorrektur – Lernerurteile im (interkulturellen) Vergleich.“ In: Henrici et al. (Hrsg.), Fremdsprachen Lehren und Lernen. Themenschwerpunkt: Fehleranalyse und Fehlerkorrektur. 1993. S.83
4. K.Lochtman. Fremdsprachen in Lehre und Forschung. Korrekturhandlungen im Fremdsprachenunterricht. AKS-Verlag, Bochum. 2002. S.19
5. M.Bohnensteffen. Fehlerkorrektur. Lehrer- und Lernbezogene Untersuchungen zur Fehlerdidaktik im Englischunterricht der Sekundarstufe II. Internationaler Verlag der Wissenschaften, Frankfurt am Main. 2010. S.14.
6. W.Edmondson. Warum haben Lehrerkorrekturen manchmal negative Auswirkungen?“ In: Henrici et al. (Hrsg.), Fremdsprachen Lehren und Lernen. Themenschwerpunkt: Fehleranalyse und Fehlerkorrektur. 1993. S. 57-75.
7. W.Tönshoff. Mündliche Fehlerkorrektur im Fremdsprachenunterricht. In: Zeitschrift für Fremdsprachenforschung. Band 16., München. 2005. S.14.